

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SAID AHMAD

HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH BO‘YICHA

Dastur va uslubiy qo‘llanma

Toshkent – 2020

Mazkur dastur va uslubiy qo‘llanma o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Said Ahmadning hayoti va ijodini oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish uchun ishlab chiqildi.

Dastur va uslubiy qo‘llanmada Said Ahmad hayoti va ijodining barcha jabhalari qamrab olindi. Uning qismlarida Said Ahmad hayoti va faoliyatiga doir ma‘lumotlar aniq manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, yozuvchi ilgari surgan g‘oyalarni talaba-yoshlarga sodda va tushunarli qilib yetkazish maqsadida adib tarjimai holi va asarlarining asosiy nuqtalariga murojaat qilindi, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy istiqlol g‘oyasi bilan hamohang jihatlarni singdirishga harakat qilindi.

Dastur va uslubiy qo‘llanma Said Ahmad hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori,
professor

Tuzuvchi:

Hoshimjon Ahmedov,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Taqrizchi:

Sulton Normamatov,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Mazkur uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

I. KIRISH

Said Ahmad hayoti va ijodini o‘qitish bo‘yicha dastur oliy ta‘lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur kursning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo‘lib, adib hayoti va ijodi, adabiy faoliyati, publitsistik mahorati, badiiy asarlari yuzasidan fikrlar-xulosalar yoritilgan. Ularni singdirish dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha o‘tiladigan turkum mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

II. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ adiblarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Said Ahmad hayoti va ijodini o‘rganishning zaruriyatini tushuntirish, yozuvchining milliy adabiyotimizdagi beqiyos o‘rni va asarlarining ahamiyatini birgina Said Ahmad faoliyati misolida ochib berish, yozuvchining bugungi milliy ma‘naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

III. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING VAZIFALARI

- XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o‘zbek adabiyotida Said Ahmadning tutgan o‘rni va mavqeyini ochib berish;
- Said Ahmad hayoti va ijodiga doir muhim ma‘lumotlarni davriy ketma-ketlikda xolisona yoritib berish;
- Said Ahmadning publitsistika, adabiy jarayondagi faoliyatini atroflicha ochib berish;
- Milliy adabiyotimiz romanchilik janrida Said Ahmad romanlarining yuksak badiiy qimmatga ega ekanligiga e‘tiborni qaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma‘rifat va taraqqiyotga chorlash yo‘lida Said Ahmad faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;
- Said Ahmad hayot yo‘li va faoliyati asosi bo‘lgan jasorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma‘rifatparvarlik, erkparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, adolatlilik kabi fazilatlarining ma‘naviy-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish;
- Said Ahmadning adib sifatida yaratgan ijod mahsullari – “Ufq” romani, qissa va hikoyalari, adabiy o‘ylar va maqolalari mohiyatini, ma‘no-mazmunini, g‘oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.

IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

- XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o‘zbek adabiyotining, xususan, Said Ahmad faoliyatining mustaqil milliy mafkuramiz bilan hamohang jihatlarini anglab yetishlari;

- Said Ahmad hayoti va ijodi yuzasidn ma’lumotga ega bo’lishlari, o’zlashtirgan bilimlarni to’g’ri mushohada eta olishlari;
- Said Ahmadning yozuvchilik faoliyati, jumladan, uning hikoyanavislik, romannavislik mahorati bilan tanishish, ularda aks ettirilgan g’oyalarni talqin qila olishlari;
- Said Ahmadning adib sifatidagi qiyofasini ochib beruvchi “Ufq” romani badiiy xususiyatlarini o’rganish;
- Yozuvchi asarlaridagi badiiy g’oya, qahramonlarining milliy o’ziga xos fazilatlarini haqida tasavvurga ega bo’lishlari.

V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Fakultativ o‘quv kursi – “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Elshunoslik”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot”, “Milliy g’oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

№	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat
1	Ma’ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	JAMI:	20

Mashg‘ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	Mavzular	Mazmuni	Kutiladigan natija	soat
	MA’RUZALAR			8
1	Said Ahmad hayoti va ijodi	Said Ahmad hayoti va ijodi, u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida ma’lumot beriladi. Yozuvchi ijodini o’rganishning ahamiyati tushuntiriladi. Said Ahmad dunyoqarashi kengayishida muhim ta’sir ko’rsatgan omillar izohlanadi.	XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti, mustaqillik yillari boshlaridagi Said Ahmad ijodi va asarlarining mazmuni haqida yozuvchi hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, Sobiq ittifoq davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo’ladilar.	2

			Ijodkor dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar haqida xulosa chiqarish ko'nikmalari hosil bo'ladi.	
2	Said Ahmad hikoyalari haqida	Adibning "Qoplon", "Sobiq" hikoyalarida ko'tarilgan mavzular, "Cho'l burguti" turkum hikoyalarida yoritilgan voqealar talqini, hikoyalarning badiiy jihatlari haqida ma'lumot beriladi.	Said Ahmad hikoyalarida ko'tarilgan mavzular, ularning davr uchun qanchalik dolzarb bo'lganligi, bu hikoyalarning milliy hikoyachilikdagi o'rnini va ahamiyati kabi masalalarni anglab yetadilar	2
3	Said Ahmadning "Ufq" romani g'oyasi, syujeti va qahramonlari	Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi haqida, bu romanlarda aks etgan voqealar hamda qahramonlarining fazilatlarini, asar badiiyati, o'ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g'oyalar tahlil qilinadi	"Ufq" trilogiyasining tarkibi, har bir romanda ko'tarilgan mavzu va g'oyalar, qahramonlar faoliyati talqini, milliy romanchilikda yozuvchi trilogiyalarining o'rnini o'ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g'oyalarni tushunib yetadilar.	2
4	Said Ahmadning mustaqillikdan keyingi faoliyati, bu davrdagi asarlari haqida	Milliy mustaqillikka erishilgandan keyin adib hayoti va ijodidagi ijobiy holatlar, yangicha ruhda gi asarlarning paydo bo'lishi, ayniqsa "Qorako'z Majnun" hikoyasida yangi mavzu – e'tiqod va e'tiqodsizlik qalamga olinganligi, "Sarob" hikoyasida stalinizm kirdikorlari haqqoniy ochib berilganligi tahlil qilinadi. Adibning mustaqillik davrida yangicha mavzularga qo'l urganligi.	Yozuvchining "Yo'qotganlarim va topganlarim", "Qorako'z Majnun", "Sarob", "Azroil o'tgan yo'llarda" nomli hikoyalarda mavzu dolzarbligini, ularda adibning sinchilik mahorati, qatag'on siyosatiga badiiy baho berilganligi, milliy qadriyatlarimizning umrboqiy ahamiyati hamda shu davr yozuvchi asarlarining badiiy-estetik nuqtayi nazaridan baholash ko'nikmasiga ega bo'ladilar	2
SUHBAT-MULOQOTLAR				4
1	"Jimjitlik" romani haqida	Said Ahmadning ikkinchi yirik nasriy asari –	Said Ahmadning trilogiyadan keyingi asari –	2

		<p>1988-yilda e'lon qilingan "Jimjitlik" romani ekani. Asarda 74 yil umr ko'rgan sobiq ittifoq davrida vatanimizda ro'y bergan salbiy o'zgarishlar aks etgan asar sifatida. "Turg'unlik yillari" deb atalgan davrda qishloq xo'jaligida, aholi turmush tarzida ahvoning turg'unlikka tushib qolgani ko'rsatilgani. Bosh qahramon – Mirvali timsolida o'zbo-shimcha, hukmfarmon, xudbin rahbarlar gavdalandirilgani. Romandagi Jayrona, Hojimuurod, Shavkat Rahimov obrazlari hamda roman poetikasi tahlil qilinadi.</p>	<p>"Jimjitlik" romani ekanligi. Bu asar orqali milliy tariximizning sho'rolar davridagi, xususan, XX asr ikkinchi yarmidagi haqiqiy qiyofasi gavdalangani, yurtimizda boshqaruv tizimidagi buzilishlar, insonlar taqdiri haqida hamda adibning nasriy mahorati bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'lishadi.</p>	
2	<p>"Ufq" trilogiyasining birinchi kitobi– "Qirq besh kun" romani haqida</p>	<p>Trilogiyaning birinchi kitobida o'zbek xalqining fidokorona mehnati, noyob suv inshooti qurilishi markaziy voqea ekanligi. Romanda milliy tariximizning "Qatag'on yillari" davridagi fidoyi mehnat qahramonligi asosiy mavzu sifatida. Qahramonlar Ikromjon, Azizbeklar siymosida mehnatsevarlik, haqgo'ylik, vatansevarlik, sevgida vafodorlik kabi fazilatlarning tarannumi etilganligi. O'zbek xalqining mardona obrazi mahorat bilan tasvir etilganligi, asarda milliy o'ziga xos sifatlar beqiyos tarzda ochib</p>	<p>"Qirq besh kun" romanida milliy jihatlarimizdan – vatan va millat uchun fidoyilik sifatleri aks etganligi, kitobxonlar tomonidan juda qizg'in kutib olinganligi. Adabiy jarayonning trilogiyaga, "Qirq besh kun" romaniga yuksak bahosi. Talabalar-da asar syujeti, voqealar rivoji, qahramonlar harakati, romanning milliy va jahon adabiyotidagi o'rni va bahosi haqida xolisona baholash ko'nikmalari paydo bo'ladi.</p>	2

		berilganligi hamda asar-ning yana boshqa badiiy xususiyatlari xususida bayon etiladi.		
MUNOZARALAR				4
1	Said Ahmad komediyalari. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” pyesasi.	Adibning milliy adabiyotimizda katta voqea bo‘lgan komediyalari haqida fikrlar bayon qilinadi. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida milliy qadriyatlarining go‘zal ko‘rinishlari – oila mustahkamligining betakror badiiy ifodalari haqida aytib o‘tiladi. Komediya qaynona va kelin munosabatlarining kulgi fonida ta’sircha usulda ochib berilganligi, aka-ukalar ahilligi, maishiy mavzuning beozor kulgu bilan ifoda etilganligi. Badiiy muammo-ning oqilona yechim topganligi to‘g‘risida ma’lumot berib beriladi.	“Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida obrazlar va syujet tasvirida haqqoniylik, hayotiylik prinsiplariga rioya etilganligi. Yumor yordamida badiiy konflikt va muammolarning mohirona aks ettirilganligi. Asarda badiiyat talablariga to‘liq rioya qilinganligi haqida bilimga ega bo‘lishadi.	2
2	Said Ahmadning “Kuyov” komediyasi	O‘zbek dramaturgiyasining yetuk namunalaridan biri bo‘lmish – “Kuyov” asarida bosh mavzu oila ekanligi. Asar mavzusining dolzarbligi. Bosh qahramon – G‘anivoy obrazi talqinlari. Komediya ikkinchi darajali qahramonlar talqini: Qudrat, Rahima, Bahri, Jo‘ravoy, Zebinisa. Qishloqdagi beva xotinlar ta’rifi. Komediya kitobxonlar va munaqqidlar muhokama-	Talabalar bu drama orqali oila muqaddas dargoh ekanligini yana bir bor chuqurroq anglaydilar. Pyesa markazida katta insoniy muammo yotganligi – yolg‘izlikning inson qalbi uchun asoratli ekanligi, kishi ruhiyatiga salbiy ta’sirini tushunib oladilar, sevgi-sadoqatning ahamiyatini teranroq his qiladilar hamda yozuvchi tomonidan ko‘tarilgan mavzular barcha zamonlar uchun ham birday ahamiyatli ekanligini anglab	2

		sida. Asarda oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini drama negizida tushuntirishga urg‘u beriladi.	yetadilar.	
TAQDIMOT				4
1	Said Ahmad hajviyalari haqida	Yozuvchi hajviyalari o‘z davrining dolzarb muammolarini badiiy ta’sirchan shaklda ifoda etganligi. Adibning sof yumoristik hikoyalari. “Bir siqim xandon pista”, “Uzun til” hikoyalarida zaharxanda kulgu. “Olqindi”, “Poraxo‘rning o‘limi”, “Go‘shkning zarari haqida”, “Oftobga chiqqan mushuk”, “Aziz va Bonapart” hikoyalariida kulgu zamiridagi og‘riq”. Hayot haqiqatlarini kulgu fonida bo‘rttirish orqali muammoga e’tibor qaratilishi. Adib hajviy-satirik hikoyalari-ning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyati asoslab beriladi.	Said Ahmadning yumoristik hikoyalariida aslida jamiyatdagi jiddiy muammolar ko‘tarilganligi. Satira va hajv – adibning muammolar haqida bong urish vositasi ekanligi. Talabalar Said Ahmadning hajviy mahorati xususida o‘z bilimlarini oshirib boradilar.	2
2	Saida Zunnunova xotiralari, “Umrin bayoni” qissasi	Yozuvchi tarjimai holidan Saida Zunnunovaning o‘rni. “Menga yetib kelmagan xat” hikoyasida Saida va qaynona obrazlari. Hikoyada qatag‘on alamlari aks etganligi. “Qanoatda Saida filcha bo‘lurmi hay-hay” hikoyasi mavzuning uzviy davomi sifatida. Saida Zunnunovaning sabr-bardoshi, ko‘rgan xo‘rliklari, vafo-sadoqati hamda irodasi	Taqdimotda Said Ahmad hayoti va ijodida rafiqasining katta rol o‘ynaganligiga e’tibor qaratiladi. Saida Zunnunovaga bag‘ishlangan hikoyalar orqali oila mustahkamligida er-xotinning o‘rni, mas’uliyati, vafo va sadoqati haqida o‘ylar maqsad qilganligini anglashiladi. Talabalar bu xotiralarda ham adib, ham rafiq obraziga e’tibor qaratadilar, uning insoniy fazilat-	2

	<p>haqida bitilgan hayotiy hikoya sifatida. Bu xotiralarda adib Stalin va undan keyingi davr haqiqatlarini mahorat bilan aks ettirganligi to'g'risida fikr-mulohazalar ta'kidlab o'tiladi. "Umrin bayoni" qissasida yozuvchi hayotining eng og'riqli – qatag'on davri achchiq xotiralari aks etganligi.</p>	<p>lariga hamda ijodkor sifatidagi qiyofasiga baho beradilar, bu insonlarni yanada chuqurroq anglab yetadilar.</p>	
--	---	--	--

VII. "SAID AHMAD HAYOTI VA IJODI" KURSINI O'QITISHNING O'QUV-USLUBIY TA'MINOTI

"SAID AHMAD HAYOTI VA IJODI" KURSINING SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi					
OTMning nomi va joylashgan manzili:					
Kafedra:	O'zbek tili va adabiyoti				
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:					
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:			e-mail:		
Dars vaqti va joyi:			Kursning davomiyligi:		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:					
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim:	30
	Ma'ruza:	8	Seminar		
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o'quv kursi – "Elshunoslik", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Tarix", "Madaniyatshunoslik", "Milliy matbuot", "Milliy g'oya va mafkura" va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqador hisoblanadi.				
Fanning mazmuni					
Kursning maqsad va	Fanning asosiy maqsadi – Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug' ajdodlarimiz				

vazifasi:	<p>bosib o'tgan hayot yo'lini o'rnak sifatida ko'rsatish, Said Ahmad hayoti va ijodini o'rganishning zaruriyatini tushuntirish, milliy adabiyotimiz rivojini, milliy g'oya targ'ibotidagi o'rnini birgina Said Ahmadning bugungi milliy ma'naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o'rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - XX asr ikkinchi yarmi-XXI asr boshlari o'zbek adabiyoti rivojida, adabiy jarayonlarda yozuvchining tutgan o'rni va mavqeyini ochib berish; - Said Ahmad hayoti va ijodiga doir muhim ma'lumotlarni tarixiy dalillar asosida xolisona yoritib berish; - Said Ahmadning o'zbek romanchilik maktabini qanday boyitganligini atroflicha ochib berish; - Adib romanlarida davrning dolzarb muammolari ko'tarilganiga e'tiborni qaratish; - yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash yo'lida Said Ahmad faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ'ib etish; - Said Ahmad hayot yo'li va faoliyati asosi bo'lgan jasorat, sadoqat, mardlik, fidoyilik, irodalilik, erkparvarlik, to'g'riso'zlik, adolatlilik kabi fazilatlarning ma'navi-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi ahamiyatini tushuntirish; <p>Said Ahmad asarlari – “Ufq”, “Jimjitlik”, “Kelinlar qo'zg'oloni”, “Kuyov” va boshqa qissa va hikoyalari mohiyatini, ma'no-mazmunini, g'oyaviy maqsadlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.</p>
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o'zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Said Ahmad hayoti va ijodini o'rganish; - Yozuvchining hajvnavislik faoliyati; - XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o'zbek adabiyotining shakllanishiga xos xususiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; - Said Ahmadning o'zbek romanchiligiga qo'shgan hissasi; - Adibning hikoyachilikdagi mahorati; - Adibning murakkab hayot yo'li; - Said Ahmad va Saida Zunnunova oilaviy hayoti, bularning mardlik va sadoqatlari haqida; - Mustaqillik davri o'zbek adabiyotning shakllanishida yozuvchi asarlarining o'rnini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - Adib komediyalarining O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotidagi rolini tushuntira bilish;

	<ul style="list-style-type: none"> - Said Ahmad asarlarining adabiy jarayonda hamda adabiy jamoatchilikdagi bahosini tahlil qila olish; - adabiyotning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish; - Said Ahmad asarlarining o'zbek madaniy hayotidagi o'rni va ahamiyatini izohlay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Sillabus taqvim:
O'tiladigan mavzular ro'yxati:

№	Mavzular	Ma'ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Said Ahmad hayoti va ijodi	2 soat			
2	Said Ahmad hikoyalari haqida	2 soat			
3	Ahmadning "Ufq" romani g'oyasi, syujeti va qahramonlari	2 soat			
4	Said Ahmadning mustaqillikdan keyingi faoliyati, bu davrdagi asarlari haqida	2 soat			
5	"Jimjitlik" romani haqida		2 soat		
6	"Ufq" trilogiyasining birinchi kitobi – "Qirq besh kun" romani haqida		2 soat		
7	Said Ahmad komediyalari. "Kelinlar qo'zg'oloni" pyesasi.			2 soat	
8	Said Ahmadning "Kuyov" komediyasi			2 soat	
9	Said Ahmad hajviyalari haqida				2 soat
10	Saida Zunnunova xotiralari. "Umrim bayoni" qissasi				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat
Asosiy adabiyotlar:		1.Норматов У. Саид Аҳмад. (Адабий портрет). Т.; Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1971. – 236 б. 2.Ғафуров И. Прозанинг шоири. Т.; Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат			

	<p>нашриёти. 1984. – 266 б.</p> <p>3. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. Т.: Ёзувчи. 2000. – 352 б.</p> <p>4. Каримов Н. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи. 1999. – 420 б.</p> <p>5. Норматов У. Танланган асарлар. 1 жилд. Т. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. – 280 б.</p> <p>6. Шарафиддинов О. “Иждони англаш бахти”. ШАРҚ НМАК. Т.: 2004. 640 б.</p> <p>7. Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. Ҳикоялар Т.: ШАРҚ НМК, 2000. – 304 б.</p> <p>8. Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. Ҳажвиялар, пьесалар. Т.: ШАРҚ НМК, 2000. – 384 б.</p> <p>9. Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. III жилд. Хотиралар, адабий ўйлар. Т.: ШАРҚ НМК, 2000. – 336 б.</p> <p>10. Саид Аҳмад. Уфқ. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 2000. – 688 б.</p>
Qo‘shimcha adabiyotlar:	<p>1. Норматов У. “Етуклик”. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 1982. 368 б.</p> <p>2. Норматов У. “Гўзаллик билан учрашув”. “Ёш гвардия”. Т.: 1976. 208 б.</p> <p>3. Баҳодир Карим. “Янгиланиш соғинчи”. Адабиёт жамғармаси нашриёти. Т.: 2004.</p> <p>4. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. “Фан” нашриёти. Т.: 2012. 248 б.</p> <p>5. Матёкуб Қўшжонов. Сайланма. 1-жилд. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 1982. 384 б.</p> <p>6. Назаров Б. “Ҳаётийлик – безавол мезон”. “Ёш гвардия” нашриёти. – Т.: 1985. 224 б.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti	<p>1. http://natlib.uz</p> <p>2. http://ensiklopediya.uz http://ziyouz.uz http://ziyonet.uz</p>

**“SAID AHMAD HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING
MA’RUZA TEXNOLOGIYASI**

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Muammoli ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmadning hayoti va ijodi, asarlarini o‘qitishning eng samarali usullarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.	
Pedagogik vazifalar: - Said Ahmad hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish; - adib asarlari nashri bilan tanishtirish; - adib asarlarining yetakchi badiiy xususiyatlarini ko‘rsatib berish;	O‘quv faoliyatining natijalari. <i>Talaba:</i> - Said Ahmad hayoti ijodi sanalariga tavsif beradi; - adib asarlarining muhim xususiyatlarini aytib beradi va izohlaydi; - adib asarlarini tematik guruhlariga ajratadi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma’ruza, blits-so‘rov, bayon qilish, klaster, “BBB” texnikasi
O‘qitish vositalari	Ma’ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
O‘qitish shakli	Jamoa va guruh bo‘lib ishlash
O‘qitish shart-sharoiti	Elektron doska bilan jihozlangan xona

MA’RUZA MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. 10 daqiqa	O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e‘lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg‘ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta’limiy faoliyatga tayyor bo‘ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa	Ma’ruza mashg‘uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil qiladi. Said Ahmad hayoti va ijodi haqidagi dars rejasini tanishtiradi. Mavzu yuzasidan umumiy axborot beradi. Adib yashab o‘tgan davr va uning murak-	Mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning yakuniy bosqichida to‘ldiriladi. Talabalarda ta’limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o‘quv-

	<p>kabliklarini tushuntiradi. Roman va hikoyalarning badiiy jihatlarini izohlaydi (ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi).</p> <p>Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.</p>	<p>bilish faoliyatlari to'g'ri rejalashtiriladi. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi.</p> <p>Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtayi nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar.</p> <p>O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi.</p> <p>Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar.</p> <p>Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi.</p> <p>Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtayi nazarlarini bildiradilar.</p>
<p>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</p>	<p>Talabalar tomonidan ma'ruzada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.</p>	<p>Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.</p>
<p>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</p>	<p>Mavzuni to'liq o'zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.</p>	<p>Mavzu bo'yicha maqola tayyorlaydilar.</p>

VII. KURS YUZASIDAN MASHG‘ULOTLAR VA MUSTAQIL TA’LIM YUZASIDAN KO‘RSATMALAR

O‘qitishda kasbiy yo‘naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan o‘qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o‘zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo‘llash yo‘llarini belgilash;

- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o‘qitishning barcha shakllari: ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, mustaqil ta’limning didaktik maqsadlarini e’tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- o‘qitishning asosiy shakllari bo‘lgan ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘rganiladigan mavzuni mazmunini e’tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish va amalda qo‘llash;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Ta’lim tizimida interfaol ta’lim texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:



Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. Kelib chiqish manbayiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

“**Interfaol**” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter”– o'zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko'rmok* kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.


Mantiqiy nuqtayi nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbayi o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (magistrant)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

Interfaol ta'limning asosiy belgilari



Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:



Keyingi yillarda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosiy o'rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim* deb nomlanadi. Ushbu ta'lim pedagog va magistrant o'rtasidagi o'zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e'tirof etilishi uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Modulli ta'lim texnologiyasi.
2. Muammoli ta'lim texnologiyasi.
3. Interfaol ta'lim texnologiyasi.
4. Individual ta'lim texnologiyasi.
5. Masofaviy ta'lim texnologiyasi.
6. Kompyuter ta'lim texnologiyasi.
7. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi.
8. Loyiha ta'lim texnologiyasi.
9. Dasturiy ta'lim texnologiyasi.
10. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi.
11. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.
12. O'yin texnologiyalari.
13. Gender ta'lim texnologiyasi.
14. Quvvatni tejoychi ta'lim texnologiyasi.

Mazkur ta'lim texnologiyalaridan *modulli ta'lim, muammoli ta'lim va interfaol ta'lim texnologiyalarini* faol qo'llash tavsiya qilinadi.

Ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys stadi** hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo'llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirishi e'tirof etilmoqda.

Keys-stadi – (inglizcha *case* – to'plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan haqiqiy yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish metodi.

Keys-stadi usuli qo‘llanilgan o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi
Ishlar bosqichi va mazmuni

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg‘ulotlarda tarqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlantirishga ta’sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo‘yicha tezkor-so‘rov o‘tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg‘ulotda ishlash tartibi, baholash ko‘rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alohida Ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalashiga e’tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo‘llarini aniqlashni, so‘ngra uni yechish topshirig‘ini beradi	Keys materiallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag‘ini to‘ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlariga bo‘ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko‘rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag‘ini to‘ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish.	Keysni yechish va taqdimot varag‘ini tayyorlash bo‘yicha harakat qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o‘zaro baholashni tashkillashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e’tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

KONSEPTUAL JADVAL

O'rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o'rgatish, muammoni tahlil qilish, ma'lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo'nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so'z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontaal bo'yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo'yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jihat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o'zlashtirilayotgan o'quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo'yicha konseptual jadvallarni mikroguruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg'ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o'tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig'ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Fakultativ o'quv kursini o'qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin. Shuningdek, o'qitishning **an'anaviy va ilg'or usullarini, shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish, muammoli o'qitish texnik vositalarini qo'llash, ekskursiya** va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlari ma'ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo'llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o'quv kursini zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

– “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Reynstorming”, “Klaster” (axborotni yig'ish), “Sinkveyn” (axborotni yig'ish), “Akvarium”, “Charxpalak”, “G'oyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

– Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish.

– Talabalarning kichik guruhlarga bo'lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish.

– ma'ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).

- Test savollari tuzish.
- “Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o‘zlashtirishda ko‘maklashish.
- talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko‘rgazmali ma’ruza qilishga o‘rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

MUSTAQIL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISH

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o‘quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tarqatma materiallar bo‘yicha fakultativ o‘quv kurs mavzularni o‘zlashtirish. Bunda o‘qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo‘yicha 3-5 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

- O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg‘ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

- O‘z-o‘zini baholash orqali bilimni uzluksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimini o‘zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.

- Fakultativ o‘quv mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o‘rganish;

- Talabalarining mustaqil ta’lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o‘quv kursining muayyan mavzularni chuqur o‘rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

- Internet materiallari.

- Audio manbalar.

- Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.

- Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg‘ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH

Taqdimotlar fakultativ o‘quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya’ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o‘taydi. Taqdimotlar o‘quv taqvimiy rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

- fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish.

- internet materiallarini topish va unumli foydalanish;

- audivizual manbalardan foydalanish;
- axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI

1. Said Ahmadning hayoti va ijodi haqida.
2. Adibning “Qoplon” hikoyasi mavzusi va badiiyati.
3. “Sobiq” hikoyasining badiiy xususiyatlari.
4. Said Ahmadning “Cho‘l hikoyalari”da mavzu va syujet o‘ziga xosligi.
5. “Cho‘l hikoyalari”da yumorning badiiy vazifasi.
6. “Ufq” romani – o‘zbek xalqi jasorati haqida ulkan asar.
7. “Jimjitlik” – turg‘unlik yillari haqida muvaffaqiyatli bitilgan asar.
8. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” – o‘zbek milliy teatr sahnasining faxri.
9. “Kuyov” – milliy xarakterlar o‘ziga xos tarzda berilgan asar.
10. Said Ahmad komediyalarida milliy urf-odatlar va milliy xarakterlar.
11. Said Ahmad – qatag‘on davrlari haqida.
12. “Sarob” hikoyasi – qatag‘on dahshatining kichik hajmdagi suvrati.
13. “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi–mustaqillik ostonasidagi xalqimiz tarixining achchiq lavhalari.
14. Said Ahmad Tog‘ay Murod ijodi haqida.
15. “O‘zbekning milliy yozuvchisi” – Said Ahmad O‘tkir Hoshimov ijodi haqida.
16. “Mohir va benazir munaqqid” – Said Ahmad Ozod Sharafiddinov ijodi haqida.
17. “Yumor va satira ustasi”- Ne‘mat Aminov haqida.
18. Adibning vafodor yori.
19. “Qanoatda Saida filcha bo‘lurmu hay, hay...”
20. Shuhratning shuhratli yillari.
21. “Yelkasini payg‘ambar silagan shoir” (G‘afur G‘ulom haqida)
22. “Jomdan chiqqan yozuvchi” (Murod Muhammad Do‘st)
23. “Yelkasini haqiqat silagan ijodkor” (Abdulla Qahhor)
24. “Qorako‘z Majnun” – mumtoz hikoya.
25. Said Ahmad – zamondoshlari xotirasida.

VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI

MA‘RUZALAR

Birinchi mashg‘ulot: Said Ahmadning hayoti va ijodi.

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Said Ahmad hayoti va ijodi bilan aloqador eng muhim va asosli ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Said Ahmadning hayoti va ijodi, u

yashagan davr xususida aytib o'tadi. Adib yaratgan romanlar, qissalar, hikoyalar, ularning badiiy xususiyatlari haqida alohida ta'kidlaydi. Ijodkor yashagan tarixiy sharoit va davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari to'g'risida tasavvur uyg'otadi. Said Ahmad hayoti va faoliyati tadqiq etilgan ishlar bilan tanishtiradi. Adibning "Ufq" romani hamda komediyalarining milliy adabiy jamoatchilikda olgan baholari hamda bu asarlarning badiiy-estetik qimmatini, adabiy-nazariy omillar izohlanadi. Said Ahmad hayoti va ijodini o'rganishning ahamiyatini bugungi milliy g'oya va mafkura negizida tushuntirib o'tadi.

(Shu o'rinda Said Ahmad hayoti va ijodi yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi "Didaktik o'yin" texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Said Ahmad hayoti va ijodini o'rganishning muhim jihatlari yoritish, adib asarlari, g'oyalarining bugungi milliy mafkuramizga mos keluvchi nuqtalarini tahlil qilish, adib faoliyati va qarashlarining keng targ'ib etilishi va o'rganilishi masalalariga bag'ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

"Matbuot konferensiyasi"da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Said Ahmad hajviy hikoyalarda ko'tarilgan muammolar va ularning mohiyati nimadan iborat?
2. Said Ahmad romanlari ("Ufq")ni mashhur qilgan jihatlari sizningcha qaysilar?
3. Adibning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida qanday o'zbekona fazilatlar ko'rsatilgan?
4. Said Ahmad va Saida Zunnunova hayotidagi oilaviy sadoqat haqida qanday fikrdasiz?

Qo'llash: davr adabiy muhitini to'g'ri anglab yetishda, Said Ahmad faoliyatining o'ziga xos jihatlari belgilab olishda hamda "O'zbek adabiyoti tarixi", "Tarix", "Milliy matbuot" fanlarining tegishli mavzulariga qo'llash mumkin.

Natija: Said Ahmad hayoti va ijodi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Adib hayotini o'rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san'at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo'ladi. Talabada sobiq ittifoq davri o'zbek adabiyoti, Said Ahmad asarlarini xolisona, atroflicha baholash ko'nikmalari paydo bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: Said Ahmad, romanlar, jiddiy va hajviy hikoyalar, komediyalar, “Ufq” romani, “Jimjitlik” romani, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov” pyesalari, badiiy xususiyatlari, adabiy jamoatchilik bahosi.

Ikkinchi mashg‘ulot: Said Ahmad hikoyalari.

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi Said Ahmadning jiddiy hamda hajviy-satirik hikoyalari xususidagi ma’lumotlarni yetkazadi. Bu hikoyalarda jamiyat hayotidagi katta muammolar badiiy talqin etilganligi aytib o‘tiladi. “Qoplon” hikoyasida amalparastlik, laganbardorlik illatlari, “Sobiq” hikoyasida soxtakorlik, zo‘rma-zo‘rakilik kabi illatlar fosh etilgani, mustaqillikdan keyingi davrda qatag‘on davrlari haqida biografik hikoyalar yaratgani haqida ma’lumot beriladi. “Sarob” hikoyasi lager-qamoqxonada hayoti, oqpadar yigit va mahbuslarning og‘ir hayoti haqida, “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasi ko‘zbo‘yamachiliklar, zo‘ravon tergovchilar haqida ta’sirli uslubda yozilgan hikoyalar ekanligi tushuntirib beriladi.

(Shu o‘rinda Said Ahmad hikoyalari haqida tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Yoshlar uch guruhga bo‘linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta’lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchiga mansub vakillar sifatida ishtirok etishadi. Mashg‘ulot davomida olingan tushunchalar asosida Said Ahmad asarlari, ulardagi muammo va mavzular, syujet o‘ziga xosligi, qahramonlari xususida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag‘batlantiriladi.

Qo‘llash: tajribali pedagog, san’atshunos, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

Natija: Said Ahmadning o‘zbek milliy adabiyotimizda tutgan o‘rni, asarlarining badiiy xususiyatlari hamda ularning milliy madaniy hayotimizdagi ahamiyatini tushunib yetadilar.

Tayanch iboralar: Said Ahmad, hikoyalar, “Sobiq”, “Qoplon”, “Sarob”, “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyalari, hikoyalarning badiiy xususiyatlari.

Uchinchi mashg‘ulot: Ahmadning “Ufq” romani g‘oyasi, syujeti va qahramonlari.

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Said Ahmadning “Ufq” romanlarining qisqacha mazmuni-syujeti bilan tanishtiradi. Trilogiyaning o‘ziga xos jihatlari, unda aks ettirilgan g‘oyalar, tahlil qilinadi. Har bir romanda muayyan mavzuning badiiy tadqiq etilgani, ularning har birining mustaqil syujet yo‘nalishi mavjudligi haqida bayon etiladi. “Hijron kunlarida” romanida ota va o‘g‘il, ona va o‘g‘il, oila munosabatlari va farzand tarbiyasi g‘oyasi o‘rtaga tashlanganligi, bunda adib muammoning oqilona badiiy yechimini topganligi bayon etiladi.

(Shu o‘rinda Said Ahmadning “Ufq” romani bo‘yicha ishlangan hujjatli filmlardan parchalar namoyish etiladi)

Interfaol metod

O‘qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Said Ahmad o‘z asarlarida qanday g‘oyalarni aks ettirgan? savoli bo‘yicha quyida fikrlaringizni bayon eting?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o‘zlari yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. O‘qituvchi esa ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mavzuni to‘g‘ri anglashlariga harakat qiladi.

Qo‘llash: adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi, dinshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

Natija: yoshlarda Said Ahmadning “Ufq” romani va uning mazmuni haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Trilogiyaning “Hijron kunlarida” deb nomlanuvchi ikkinchi qismida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish mavzusi ko‘tarilgan. Ikkinchi jahon urushi ketayotgan bir pallada front ortida fidokorona mehnat jarayoni ketayotganligi e‘tiborga olinadi. Talabalar Azizbek va Tursunboy misolida mardlik va qo‘rqoqlik, chin sevgi va muhabbat qadri kabi masalalarda bahs-munozara yuritadilar. Romanda ota-ona, vatan va burch kabi mavzularda ham mustaqil fikrlar almashinuvi amalga oshiriladi. Talabalar bu qadriyatlarining bugungi kunda ham naqadar dolzarbligini anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: Said Ahmad, XX asr o‘zbek adabiyoti, “Ufq” romani, syujet, qahramonlar, “Hijron kunlarida” romani, adabiy tahlil.

To‘rtinchi mashg‘ulot: Said Ahmadning mustaqillikdan keyingi faoliyati, bu davrdagi asarlari haqida.

O‘tkazish shakli: ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarni Said Ahmadning mustaqillikka erishilgandan keyingi davrdagi ijodi haqida ma’lumot beradi. Adib uch yo‘nalishda ijod qilganligi aytiladi: Stalin davri qatag‘onlari mavzusi, xotiralar hamda oilaviy qadriyatlar muqaddasligi mavzusi. Birinchi mavzuda – “Sarob”, “O‘zbek oyim”, Saida Zunnunova xotiralari, ikkinchi mavzuda esa “Yo‘qotganlarim va topganlarim” hamda uchinchi mavzuda “Qorako‘z Majnun” hikoyalari. Tahlil uchun yangi mavzu – e‘tiqod va insoniylik mavzusi ko‘tarilgan “Qorako‘z Majnun” hikoyasi tanlab olinadi. Unda Saodat aya obrazida mujassamlashgan ona obraziga diqqat

qaratiladi. Uning o'g'li Bo'rixon obrazida esa oila, vatan, e'tiqodidan voz kechgan nobakor o'g'il haqida fikr yuritiladi. Onaga sodiq it – "Majnun" timsoli bilan bunga teskari ravishda xiyonatkor o'g'il obrazi qarama-qarshi qo'yiladi. Syujet drammatizmi, mavzu dolzarbligi asarni ta'sirchanligini ta'minlagan omil sifatida. Talabalar voqealar rivoji va qahramonlar qismati to'g'risida fikr-mulohaza bildiriladi.

(Shu o'rinda "Qorako'z Majnun" hikoyasi asosidagi multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Yoshlar 2 guruhga bo'linadilar. 1-guruh hikoyadagi ona obrazini, 2-guruh hikoyadagi murtad o'g'il – Bo'rixon (Borya) obrazi misolida milliy o'zlik, oila, e'tiqod, qadriyatlar xususidagi qarashlarini tahlil etadilar. Mashg'ulot jarayonida olingan tushuncha va ma'lumotlar asosida to'g'ri va notog'ri fikrlash holatlari ko'rsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag'batlantiriladi.

Qo'llash: talabalar diqqati hikoyada asosiy mavzusi – dindan qaytishga qaratiladi. Hikoya epigrafidagi "Qur'on" suralaridan oyatlar yana bir bor eslatiladi. O'zbek oilalarida ota-ona, aka-uka, opa-singil rishtalarining umrboqiyiligi, bunga xiyonat og'ir gunohlardan ekanligi, dindan qaytish esa do'zaxiy gunoh bo'lib Allohning hukmi qat'iyligi ta'kidlab o'tiladi. Muhokama chog'ida qatnashuvchilarning mustaqil fikrlari, ayniqsa mutaxassislarining xulosalari muhim ahamiyatga ega.

Natija: Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasi orqali talabalar o'zbek oilalaridagi muqaddas qadriyatlarning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaydilar, dindan qaytish o'ta og'ir gunoh bo'lib, Alloh bundaylarni kechirmasligini teran anglab yetadilar. Talabalarda mustaqil fikr almashish tajribasi mustahkamlanadi.

Tayanch tushunchalar: Said Ahmad, o'zbek adabiyoti, "Qorako'z Majnun" hikoyasi, syujet va qahramonlar talqini, asar badiiyyati.

MULOQOTLAR

Birinchi mashg'ulot: Said Ahmadning "Jimjitlik" romani.

O'tkazish shakli: muloqot.

XX asrning 80-yillaridan boshlab vatanimizda iliqlik davrining boshlanganligi. Bu ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ijobiy o'zgarishlar tarixda "Qayta qurish" deb atalgani. Ijtimoiy hayotdagi yangicha qarashlar, ijodga nisbatan erkinliklar fonida 1988-yilda Said Ahmadning "Jimjitlik" romanining dunyoga kelishi. Bu asar badiiy ijoddagi erkinlikning paydo bo'lgani natijasi ekanligi. Asar mavzusi 80-yillar sharoitida o'zbek jamiyatida ro'y bergan salbiy holatlarning badiiy tadqiqi ekanligi. Bosh qahramon – Mirvali obrazida xudbin, o'zboshimcha, soxtakor rahbar gavdalanganligi. Bu obrazning qaysidir ma'noda "Sinchalak"dagi Arslonbek Qalandarov, "Diyonat" romanidagi Otaqo'zi obrazlariga o'xshash

ekanligi. Roman syujetida dramatik lahzalarning badiiy ishonarli tasvirlanganligi. Romandagi Jayrona, Hojimurod, Shavkat Rahimov obrazlari hamda roman poetikasi tahlil qilinadi.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. Nega roman aynan "Jimjitlik" deb nomlangan?

2-jamoaga. Mirvali salbiy qahramonmi?

3-jamoaga. Roman syujetida detektiv o'rinlar bormi?

Qo'llash: mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, siyosatshunoslar, huquqshunoslar, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: XX asr ikkinchi yarmidan boshlab sobiq ittifoq tarqala boshlagan davr ekanligi, roman mavzusi, g'oyasi o'sha davr uchun hozirjavob mavzu ekanligi to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: O'zbek adabiyoti, Said Ahmad, "Jimjitlik" romani, syujet, qahramonlar.

Ikkinchi mashg'ulot: Said Ahmad. "Ufq" trilogiyasining 1-kitobi – "Qirq besh kun" romani haqida.

O'tkazish shakli: muloqot.

Yozuvchining ushbu romani trilogiyaning birinchi asari ekanligi. Mavzu ikkinchi jahon urushi arafasida, qishloq xo'jaligida vodiy viloyatlarini suv bilan ta'minlash muammosini hal qilish ekanligi. Katta Farg'ona kanali qurilishi sobiq ittifoqdagina emas, balki butun jahon miqiyosida ham ulkan suv inshooti ekanligi. Romanning qiziqarli syujetida – Azizxonning bosh rejada turishi. Azizxon va Lutfinisa muhabbatining zavolga uchrashi. Romanda polvonlar – Esh polvon, Jo'ra polvon obrazlari. Asarda mashhur kishilar obrazlarining uchrashi. Hasan sepoyachi obrazi. Syujet va obrazlar tahlili. Ummatali va Azizxon ota-bola munosabatlarining

dramatik taranglikda berilishi. Azizxonning mehnat va ikkinchi jahon urushida chinakam qahramon bo'lishi. Asar voqealari davomida hukumat kishilari, O'zbekistonning mashur san'at va madaniyat arboblari ishtiroki borligi – asar voqealari haqqoniyligini oshirgan omil sifatida.

Interfaol metod

Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi “Didaktik o'yin” texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o'qituvchining kirish so'z bilan ochiladi. U kirish so'zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi “Qirq besh kun”romani haqida bo'lishi, roman syujeti va qahramonlari faoliyatini yoritish masalalariga bag'ishlanishini qayd etadi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san'at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Yozuvchining Katta Farg'ona kanali qurilishini yoritishdan ko'zlagan maqsadi nima deb o'ylaysiz?

2. Azizxon va Lutfinisa muhabbati nima uchun fojia bilan tugadi, bunda kim aybdor deb o'ylaysiz?

3. Kanal qurilishi gidrotexnika kashfiyoti sifatida bugun ham ahamiyatini yo'qotmay kelayaptimi?

4. Yozuvchi qahramoni – Azizxonni ikkita katta jabhada sinovdan o'tkazadi. Sizningcha ularning qaysi biri xatarliroq edi?

Qo'llash: XX asr 30-40 yillari tarixiy haqiqatni to'g'ri anglab yetishda, Said Ahmad faoliyatining o'ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “O'zbek adabiyoti tarixi”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo'llash mumkin.

Natija: O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmad hayoti va ijodi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishadi. Tarixiy va badiiy haqiqat farqini anglaydilar. Adibning “Qirq besh kun” romani mavzusi, g'oyasi, syujeti va qahramonlarini xolisona baholash ko'nikmalari paydo bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: sobiq ittifoq davri o'zbek adabiyoti, Said Ahmad, “Qirq besh kun” romani, syujeti, qahramonlari, asarning adabiy tahlili.

MUNOZARALAR

Birinchi mashg'ulot: Said Ahmadning “Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasi.

O'tkazish shakli: munozara.

Said Ahmadning komediyalari, xususan 1976-yilda yozilgan “Kelinlar qo'zg'oloni” yozuvchiga katta shuhrat keltirgan asarlardan biri ekanligi. Asarda o'zbeklar xonadonidagi go'zal fazilatlar yumor bilan mohirona ifodalanganligi.

Farmon bibi o‘zbek sahnasidagi milliy o‘ziga xos betakror obraz sifatida. Asarning milliy teatr sahnalaridan hamon tushmay kelayotganining sabablari. Milliy qahramonlarni real hayot manzarasida, tipik sharoitlarda mohirona tasvir etilganligi. Talabalarga asar atrofidagi noxolis munosabatlar, Zaynab Sadriyevaning aktyorlik mahorati, asarning kinotalqini, pyesa syujeti, qahramonlari, asardagi dramatismni ta‘minlagan omillar to‘g‘risida ma‘lumot berib beriladi.

Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma‘noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a‘zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta‘kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi mavzusi naqadar dolzarb sizningcha?

2-jamoaga. Pyesaning badiiy saviyasi, badiiyati haqida munosabatingiz.

3-jamoaga. Asarning kino va teatr talqinlarini qanday baholaysiz?

Qo‘llash: mashg‘ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma‘naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Asar orqali talabalar o‘zbeklarda qadimdan kelayotgan oila qadriyatlari hamon mustahkam asosga ega ekanligini chuqurroq anglab yetadilar, o‘zbek oilalarida qaynona va kelin munosabatlari ustivor darajada sof milliy – o‘zbekona ekanligini, o‘zbek oilasida oqibat va milliy urf-odatlarni hurmat qilish muhim jihat ekanligi, pyesa syujetida milliy kaoloritga mos milliy xarakterlar yaratilganligi to‘g‘risida yangi bilimlarga ega bo‘lishadi.

Tayanch tushunchalar: o‘zbek sho‘ro davri adabiyoti, Said Ahmad komediyalari, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” pyesasi, syujeti, qahramonlari.

Ikkinchi mashg‘ulot: Said Ahmadning “Kuyov” pyesasi

O‘tkazish shakli: munozara.

O'qituvchi talabalarga o'zbek dramaturgiyasining yetuk namunalaridan hisoblangan "Kuyov" dramasiining asosiy mohiyatini, g'oyaviy maqsadlarini bayon qilib beradi. "Kuyov"ning o'z davrida juda zarur vaqtda yaratilganligi, milliy teatrlarimiz sahnalarida sahnalashtirilganligi, dramada o'zbek maishiy hayotidagi muhim mavzu ko'tarilganligini izohlab o'tadi. Ushbu dramada oila qadriyatlariga alohida e'tibor qaratilganligi. Ota va farzand, er va xotin masalalari qiziqarli uslubda berilganligi. Dramada yolg'izlikning ijtimoiy muammo ekanligi. G'anivoy obrazining o'zbek teatrlarida muvaffaqiyatli chiqqan obrazlardan biri ekanligiga urg'u beriladi.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Insert texnikasi" metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi. O'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

"V" – tanish ma'lumot.

"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

"Q" – bu ma'lumot men uchun yangilik.

"–" bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Natija: yoshlar ushbu dramani o'rganish davomida inson yolg'izlikning ijtimoiy muammo ekanligini, chin muhabbat bilan baxtli turmush qurish mumkinligi, o'zbek xonadonida oila qadriyatlari muqaddas ekanligini chuqurroq anglab yetadilar, dramadagi har bir obraz tabiati orqali oilada sog'lom muhit bo'lishi kerakligi, insonlar dunyoqarashi, axloqi to'g'risida xulosalar chiqarishadi. Dramadagi obrazlar orqali jamiyatdagi mehr-oqibat, sevgi va sadoqat, inson qadri, uning qalb nozikliklari kabi masalalar tasvirlanganligini anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: O'zbek adabiyoti, Said Ahmad, "Kuyov" pyesasi, asar syujeti va g'oyasi, G'anivoy obrazi va asarda inson qadri masalasi talqini.

TAQDIMOTLAR

Birinchi mashg'ulot: Said Ahmad hajviyalari haqida.

O'tkazish shakli: taqdimot.

Taqdimotda Said Ahmad hajviy hikoyalari, ularda ko'tarilgan muammolar, ularning mavzu ko'lami haqida ma'lumotlar beriladi. "Bir siqim xandon pista", "Uzun til" hikoyalari zaharhanda kulgu. "Olqindi", "Poraxo'ring o'limi",

“Go’shtning zarari haqida”, “Oftobga chiqqan mushuk”, “Aziz va Bonapart” hikoyalarida ijtimoiy muammolarning satira va yumor tig‘i bilan fosh etilishi. Said Ahmad hajviylarining o‘z davrida televideniye orqali berilgani – televizion sahna variantlari ham borligi aytib o‘tiladi.

Qo‘llash: mashg‘ulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma’naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Said Ahmadning hajviy hikoyalarida hayotiy, hozirjavob mavzular ko‘tarilgani, jamiyat hayotiga yot illatlar: poraxo‘rlik, laganbardorlik, buyruqbozlik, qog‘ozbozlik, soxtakorlik kabi illatlar zaharxanda kulgu fonida fosh etilgani. Said Ahmadning yumoristik syujetlar yaratish mahorati, jozibador badiiy til uslubiga ega ekanligini bilib oladilar.

Tayanch tushunchalar: Said Ahmad, o‘zbek adabiyoti, hajviy hikoyalar, syujet va badiiy til, hikoyalar qahramonlari va g‘oyasi.

Ikkinchi mashg‘ulot: Saida Zunnunova xotiralari. “Umrin bayoni” qissasi.

O‘tkazish shakli: taqdimot.

Taqdimotda Said Ahmadning Saida Zunnunova haqidagi xotira hikoyalari haqida fikrlar yuritiladi. “Yo‘llarda terilgan satrlar”, “Biz shunday yashadik”, “Qanoatda Saida filcha bo‘lurmu hay-hay” hikoyalarida yozuvchi va uning rafiqasi – Saida Zunnunovaning mash‘um qatag‘onning urushdan keyingi ikkinchi davri yoritilgani. Ularda adib tortgan mashaqqatlarning badiiy tasviri berilgani, rafiqasining bu yillarda ayriliq va xo‘rlklarga mardona chidam va irodasi bilan qarshi turgani ta’sirchan lavhalarda hikoya qilingani. “Umrin bayoni” – Said Ahmad hayotining eng – og‘riqli, hayajonli va qalbini ezib kelgan alamlar bayoni ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Qo‘llash: badiiy tahlil asoslari, o‘zbek adabiyoti tarixi fanlarining amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llash mumkin.

Natija: Saida Zunnunova haqida xotiralari orqali Said Ahmad va Saida Zunnunova hayotining muhim pallalari haqida bilib olishadi. Adib oilasidagi buyuk muhabbatga guvoh bo‘lishadi, qatag‘on asoratlarining millat taqdirida naqadar alamli iz qoldirganini anglab yetadilar.

Tayanch tushunchalar: o‘zbek adabiyoti, yozuvchi biografiyasi, xotiralar, “Umrin bayoni” xotira-qissasi.

IX. O‘QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURLAR RO‘YXATI

Асосий дарслик ва ўқув қўлланмалар

1. Каримов Н. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. -Т.: Ўқитувчи. 1999. - 420 б.

2. Наим Каримов, Салоҳиддин Мамажонов, Бахтиёр Назаров, Умарали

Норматов, Озод Шарафиддинов. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. (Университетлар ва педагогика институтлари бакалавр ихтисослиги талабалари учун дарслик). -Т.: Ўқитувчи. 1999. - 544 б.

3. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. -Т.: Muharrir, 2011.

4. Boltaboyev N. Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. (1-2-qism) - Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.

5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Т.: Akademnashr, 2018. - 478 б.

6. Normatov U. Nafosat gurunglari. - Т.: Muharrir, 2010. -240 б.

7. Норматов У. Саид Аҳмад. (Адабий портрет). Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1971. - 236 б.

8. Ғафуров И. Прозанинг шоири. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1984. - 266 б.

9. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. -Т.: Ёзувчи. 2000. - 352 б.

10. Норматов У. Танланган асарлар. 1 жилд. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. - 280 б.

11. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. ШАРҚ НМАК. -Т.: 2004. - 640 б.

12. Норматов У. “Етуклик”. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. -368 б.

13. Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. -Т.: Ёш гвардия, 1976. - 208 б.

14. Баҳодир Карим. Янгиланиш соғинчи. -Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2004.

15. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. -Т.: Фан, 2012. -248 б.

16. Матёқуб Қўшжонов. Сайланма. 1-жилд. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. -384 б.

17. Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. –Т.: Ёш гвардия нашриёти, 1985. -224 б.

18. Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. Ҳикоялар. -Т.: ШАРҚ НМК, 2000. - 304 б.

19. Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. Ҳажвиялар, пьесалар. -Т.: ШАРҚ НМК, 2000. - 384 б.

20. Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. III жилд. Хотиралар, адабий ўйлар. -Т.: ШАРҚ НМК, 2000. - 336 б.

21. Саид Аҳмад. Уфқ. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. -Т.: 2000. - 688 б.

22. Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. -Т.: ШАРҚ НМК, 1999. - 304 б.

Elektron ta'lim resurslari

1. [www.alisher navoiy.uz](http://www.alishernavoiy.uz)
2. www.ziyo-net.uz
3. www.literature.uz
4. www.kutubxona.uz

5. www.qr.natlib.uz
6. www.media.natlib.uz
7. www.diss.natlib.uz